

Otli birikmalarning [I~O] qurilishli turi xususida

***Ro`ziyeva Sadoqat – BuxDU 2-kurs lingvistika (o`zbek)
mutaxassisligi magistranti***

O`zbek tilida otli birikmalar so`z birikma(SB)si tasnifida hokim a`zoning qanday so`z turkumiga mansubligiga ko`ra ismli birikmalar tarkibida ajratiladi [3]. Ismli birikmalarning bu turi ot leksemalarning hokim a`zo mavqeyida reallashish imkoniyati borligi tufayli nutqda voqelashadi. O`zbek tilida so`zlashuvchilar nutqida mavjud *shakar qovun, yaxshi bola, yuzta daftar, pinhona uchrashuv, o`sha kun, duv-duv gap, odamning olasi, bizning oilamiz, kattaning nasihati, mingning yarmi, olmoqning bermog`i, o`qimaganning oqibati, hozirning huzuri, gumbur-gumburning vahimasi, bahor fasli, o`zbek tili, tinchlik siyosati, Navro`z bayrami, Buxoro shahri* kabi otli birikmalarning lisoniy sintaktik xususiyatlarini aniqlash bu SBlarini voqelashtiruvchi lisoniy sintaktik qolipni belgilash va otli birikmalarni guruhlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Zero, o`zbek tilida yuqorida sanab o`tilgan hosilalar faqat ismli birikmalarga tegishliligi ta`kidlanadi-yu, alohida guruhlarga ajratib o`rganilmagan. Shunday ekan, hokim a`zosi otli SBlarining hosil bo`lishini ta`minlaydigan sintaktik qoliplarni belgilash natijasida mazkur SBlarining ichki guruhlarini ajratish mumkin.

*Shakar qovun, yaxshi bola, yuzta daftar, pinhona uchrashuv, o`sha kun, duv-duv gap* kabi SBlari tarkibini ko`zdan kechirganda tobe a`zolar ot, sifat, son, ravish, olmosh, taqlid turkumiga mansub leksemalar bilan ifodalanganligini va hokim a`zo mavqeyida faqat ot leksemalar reallashganligi seziladi. Demak, bu tipdagi SBlarida hokim ot bilan, tobe esa ismlar bilan ifodalanadi. Ismlar deyilishiga sabab shuki, ot, sifat, son, ravish, olmosh, taqlid va yana bu SBlarining tobe a`zolari mavqeyida reallasha olmaydigan sifatdosh, ravishdosh keng ma`noda “ismlar” deb yuritiladi [1;2;3;4]. Shuningdek, bu SBlarida atoqli otlar hokim a`zo mavqeyida kela olmasligini ham ta`kidlash kerak. Chunki tilimizda shunday SBlari borki, tarkibida

atoqli otlar voqelashadi va shaxsni tavsiflovchi SBlari sanaladi: *usta Norqobil, Razzoq so'fi, professor Ne'matov, Gulsum kashtachi* (v.h.).

Tobe vaziyatdagi ismlarning hokim vaziyatdagi otlar bilan birikuvi natijasida [belgi-predmet] ma'noli hosilalar yuzaga keladi. Demak, muayyan belgi-xususiyatga ega bo'lgan predmet ma'nosini ifodalash uchun ismlar muayyan yoki mavhum otlar bilan birikadi. Til tizimining sintaktik sath birliklari sirasida ism va otlarning birikuvidan hosil bo'ladigan bu birikmalar semantik xususiyatiga ko'ra [belgi-predmet] ma'noli SBlari hisoblanadi va lisoniy sintaktik xususiyatlariga ko'ra boshqa turdoshlaridan farqlanadi. Chunki mazkur birikishni ta'minlovchi va lisoniy sintaktik jihatdan ajratib turuvchi $[I \sim O] = [\text{belgi-predmet}]$ SB lisoniy sintaktik qolip(LSQ)i mavjud [1;3].

Muayyan [belgi-predmet] ma'noli SBlarini voqelantiruvchi $[I \sim O] = SB \text{ LSQ}$ i riyoziy tenglama ko'rinishida bo'lib [2], tenglikdan chap tomonda lisoniy sintaktik qurilish tarzini ifodalovchi $[I \sim O]$ qism va tenglikdan o'ng tomonda birikish mahsuli $-[SB]$ ni ifodalovchi qism joylashadi. Qolip tarkibidagi $[I]$ ramzi tobe bo'lak mavqeyida voqelashgan ism umumiy nomi ostida birlashuvchi leksemalarni ixcham tarzda umumlashtirib ko'rsatadi. O'z navbatida, $[O]$ ramzi hokim bo'lak mavqeyida reallashgan ot leksemalarni ixcham va umumiy tarzda ifodalaydi. Umumlashtirish xususiyati qolip va uning tarkibiy qismlariga xos [1;2;4]. Chunki mazkur LSQ mohiyatini belgilovchi [belgi-predmet] ma'no munosabatida tobe bo'lak mavqeyidagi ismlarning hech bir grammatik vositasiz, ma'noviy va joylashuv omillari asosida hokim bo'lak mavqeyida reallashgan ot leksemalarga birikish usuli yaqqol, ammo umumlashgan holda aks etadi. Bu LSQning $[I \sim O]$ qismi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur umumiy lisoniy shaklda $[I]$ ning tobeligini nafaqat ma'noviy omil orqali, balki $[O]$ dan oldin kelishi, ya'ni joylashish xususiyati asosida belgilash mumkin. Chunki bu til birligi tobelanish qonuniyatining ikki lisoniy imkoniyatini uyg'un holda voqelantiradi. Bulardan birinchisi ma'noviy omil

orqali yuzaga chiqayotgan imkoniyat bo`lib, u lug`aviy birliklarning ma`noviy birikuvchanlik xususiyati asosida yuzaga keladi. Negaki, birikuvchanlikning bu turi bir leksemaga xos lug`aviy (va boshqa) ma`noning ikkinchi leksemaga xos shunday ma`no bilan birikish va biriktirish qobiliyatlariga tayanadi. Ikkinchi imkoniyat esa sof sintaktik tabiatga ega bo`lib, turkiy tillarda (o`zbek tilida ham) tobe bo`lakning hokim bo`lakdan oldin joylashishi qonuniyati asosida yuzaga chiqadi. Bu sintaktik qurilishni umumlashtiruvchi qolipda hokim bo`lak mavqeyida yuzaga chiqqan ot leksemalar hokimlik belgisini o`zining shakliy birikuvchanlik xususiyati bilan emas, ko`proq tobe bo`lakdan keyin joylashish xususiyatiga asoslangan sintaktik-pozitsion, ya`ni joylashuv omili orqali namoyon qiladi [1].

Tobe bo`lak ismlardan va hokim bo`lak ot leksemalardan tuzilgan SBlarida so`zlarning ketma-ket joylashuvi yoxud qo`shnichilik munosabati birikishning [belgi-predmet] munosabatini shakllantiruvchi o`ziga xos usuli ekanligini ko`rsatadi. Bunday sintaktik birikish usuli atributiv birikmalar sirasidagi, ya`ni [aniqlovchi-aniqlanmish] sintaktik ma`no tarkibiga kiruvchi [qaratuvchi-qaralmish] va [izohlovchi-izohlanmish] munosabatlarini shakllantiruvchi SBlaridagi birikish tarzidan keskin farq qiladi. Chunki tobe bo`lak mavqeyida voqelashgan ismlar va hokim bo`lak mavqeyida reallashgan ot leksemalar o`zaro tobelanar ekan, faqat ma`noviy va joylashuv imkoniyatlarini yuzaga chiqarish asosida [sifatlovchi-sifatlanmish] munosabatini ifodalovchi SBlarini hosil qiladi. Natijada, sintaktik qurilma [belgi-predmet] ma`noviy munosabatini yuzaga chiqarish uchun lisoniy bosqichda umumiy lisoniy birlik sifatida tayyor bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, o`zbek tilida  $[I \sim O] = SB \text{ LSQi}$  mahsuli nafaqat [belgi-predmet] ma`nosiga, balki $[I \sim O]$ qurilishga egaligi tufayli otli birikmalar sirasiga kiradi va alohida guruhni tashkil etadi. Bu guruh hokim a`zosi otli birikmalarning $[I \sim O]$ qurilishli turi sifatida alohida ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова С.А. Сўзларнинг бирикиш омиллари ва усуллари. –Т.: Фан, 2013. –Б.98.
2. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Т.: Университет, 1995.-55 б.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Т.: "Fan va texnologiya", 2009.-414 b.
4. Қурбонова М. Ҳозирги ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). –Т.:ЎзМУ босмахонаси, 2002.-117 б.